

MADANIYAT SOTSILOGIYASINING FANDA TUTGAN O'RNI

Erejepova Sayora Tileumuratovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sotsiologiya fanining madaniyat sohasida tutgan orni, madaniyat sohasidagi izlanshlar va jamiyatga kerak bo'lgan madaniyat tushunchasi bo'yicha ma'lumotga ega bolasiz.

Kalit sozlar: madaniyat, jamiyat, shaxslar, sohalar.

Hozirgi kunda madaniyat tushinshasini har bir sohada orni bor ekani sir emas. Jumladan madaniyatning sotsiologiya shu qatorda falsafa, psixologiya va bir qansha fanlarda o'z orniga ega. Madaniyat bu sohalarning tartibli bo'lishini taminlaydi. Shuni ham aytib o'tish joiz madaniyat bu har qanday kasblar orasida, shu bilan bir qatorda xodimlar orasidagi o'z aro munosabatlarin bildiradi. Zero, har bir ishda yoki munosabatda madaniyat bo'lsa shu ishning dostono yoki yaxshi natiyja bilan yakunlanishi mumkin. Kundalik hayotda "madaniyat" atamasini qo'llar ekanmiz, ongning oliy mahsullari bo'lgan san'at, adabiyot, musiqa, rassomlik kabilami nazarda tutamiz. Sotsiologiyada madaniyat tushunchasi inson tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha faoliyatlar mahsuli tarzida tushuniladi. Barcha ijtimoiy fanlar qatori madaniyat sotsiologiyasi fanining ham asosiy muammosi inson hisoblanadi. Zero, madaniyat - bu inson yaratgan narsalardir. Madaniyat sotsiologiyasi insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo'lishini o'rganadi.¹

Madaniyat tushunchasi sotsiologiya fanida ham ahamiyatli orin egallaydi. Chunki sotsiologiya fani asosan jamiyat va jamiyattagi shaxslar bilan o'z aro muloqat ornataddi. Shaxslar bilan turli xil mavzularda fikr almashadi, ularning fikrlarini o'rganadi va shunga o'xshagan jarayonlar yuz beradi. Shu jarayonlar yuz berganda albatta madaniyatli muloqat ham zarur hisoblanadi. Shu qatorda bir misolni aytib o'tish joiz. Qandaydir masala bo'yicha jamiyatda sorovnoma olib borilganda sotsiolog xodim har xil shaxslar bilan muloqat qiladi. Shu paytda agar respondent savollarga javob berishdan bosh torsa yoki umuman javob berishdan bosh tortsa shu vaqtta xodimning madanyatlilik darajasi ko'rindi. Ya'ni har bir jarayonni ongli ravichda madaniyat bilan hal qiladi.

¹. Madaniyat sotsiologiyasi M. Bekmurodov. N. Yusupova "Yangi Nashr" nashiriyyoti Toshkent-2010

Madaniyat sotsiologiyasi ham sotsiologiya fanida o‘z orniga ega. Yuqorida aytib o‘tganimizdek shaxslar bilan o‘z aro muloqatta bu fan o‘z xizmatlarini bajaradi. Madaniyat sotsiologiyasini “madaniyat sohasi”, “madaniy jarayon”lami o‘rganuvchi, u yoki bu darajadagi keng qamrovli “soha sotsiologiyasi” sifatida o‘rganiladi. Bu jihatdan madaniyat sotsiologiyasi bir tomondan san’at, fan, ta’lim sotsiologiyasi kabi soha fanlari bilan bir qatorda turuvchi soha sifatida ta’riflansa, boshqa tomondan esa ulami subdissiplinalar sifatida o‘z ichiga qamrab oluvchi soha sifatida ifodalanadi. Agar madaniyat sotsiologiyasini o‘rganilayotgan hodisalami u yoki bu darajada qamrab oluvchi tarmoq fani sifatida o‘rganadigan bo‘lsak, u holda muqarrar ravishda “madaniyat” chegaralarini aniqlab olish masalasi ko‘ndalang turadi. Madaniyat sotsiologiyasini ijtimoiy voqelikning qaysidir bir “bolg‘ini” yoki “sohasi”ni o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida emas, balki umuman ijtimoiy voqelikni Ko‘rishga bo‘lgan alohida yondashuv sifatida ifodalovchi nuqtayi nazar ham mavjud. Mazkur yondashuv ijtimoiy hodisalaming ma’noviy tabiatidan kelib chiqadi. Bu holatda madaniyat sotsiologiyasi deyarli sotsiologiyani tushunishga yaqin bo‘lgan sotsiologiyaning mustaqil loyihasiga aylanib boradi.² Shu qatorda aytib o‘tish joizki madaniyat sotsiologiyasi ham jamiyatimiz uchun kerakli fanlar qatoriga kiradi. Chunki jamiyat bor ekan insonlar mavjud, insonlar bor bolsa jamiyat ham bo‘ladi. Shunday ekan sotsiologiya jamiyatda har xil masalalarni yechich uchun yuzaga chiqarar ekan madaniya sohasi ham bundan mustosno emas. Har bir sohani olib qaramaylik unda kishik bo‘lsa ham muammolar mavjudligini ko‘ramiz.

“Madaniyat” tushinchasini “jamiyat” tushunchasidan farqlash mumkin, lekin ular orasida favqulodda uzviy aloqa mavjud. Madaniyat shu jamiyatdagi odamlarning yurmush tarizi, urf-odat va rasm-rusmlar, shuningdek, ular ishlab chiqaradigan moddiy noz-ne’matlarga aloqadar tushuncha.³ Yuqorida aytib o‘tganimizdek sotsiologiya fani madaniyat sohasidagi har bir javhaga kirib boradi va ulardagi munosabatlarni, qarashlarni o‘rganadi.

Yuqorida takidlab o‘tganimizdek sotsiologiya jamiyat bilan to‘g‘ridan- to‘g‘ri muloqat olib boradi. Ana osha muloqat jarayonida madaniyat tushunchasining ham o‘z aro bog‘liqlik tarafi bar bo‘lib hisoblanadi. Sotsiologiya fani yildan yilga rivojlanib har xil sohalarni qamrab olmoqda. Madaniyat sotsiologiyasi ham shular

² Madaniyat sotsiologiyasi Komil Kalanov “Innovatsiya-Ziyo” Toshkent-2020

³ E.Giddens. Sotsiologiya. "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyodorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent-2002

jumlasidandir. Jamiyat rivojlangani sari madaniyat ham jamiyattagi shaxslar ongida rivojlanib boradi va jamiyatta madaniyatli shaxslar o‘z aro munosabat ornatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madaniyat sotsiologiyasi M. Bekmurodov. N.Yusupova "Yangi Nashr" nashiriyoti Toshkent-2010
2. Madaniyat sotsiologiyasi Komil Kalanov "Innovatsiya-Ziyo" Toshkent-2020
3. E.Giddens. Sotsiologiya. "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyodorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent-2002